

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI 4K MODEL ASOSIDA TASHKIL QILISH

Marufova Madinaxon Doniyorjon qizi

Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

1-21-guruh talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda darslarni samarali tashkil qilish uchun 4k modelidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ va kritik fikrlash kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. 4k modeli bo‘yicha olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari atroflicha yoritilgan. boshlang‘ich sinflar o‘qish savodxonligi darsliklarini 4k modeli asosida tashkil qilish bo‘yicha, kuzatuv asosidagi tahlillar qilindi.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, pedagog, moslashuvchan, kompetensiya, 4 K modeli, kritik, kreativ, kollaboratsiya, kommunikativlik.

KIRISH

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalombor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma‘naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur. Shuningdek, o‘qituvchilarga mualliflik dasturi va o‘qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o‘qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berilgan. “Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu‘in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxr-u iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi.¹ Bugungi kunda, ta‘lim jarayonida o‘qish savodxonligini rivojlantirish, talabalar va o‘quvchilarga keng bilim va ko‘nikmalarni egallashda katta ahamiyat ega bo‘lib kelmoqda. 4K modeli o‘qish savodxonligi darsini samarali tashkil etishning muhim asosi bo‘lib, bu usul o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini nafaqat o‘qish, balki o‘qishdan olingan bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llay olish imkoniyatini yaratib beradi. Ushbu model o‘qish savodxonligini nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy

¹ Daryo. (2020, September 30). *Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchi va murabbiylarni kasb-bayrami bilan tabrikлади*. Retrieved from

hayotda ham qoʻllaniladigan faol koʻnikmaga aylantira oladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taʼlim sohasidagi eng yangi fikri 2024-yil 23-yanvarda boʻlib oʻtgan oliy taʼlim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimotda bildirildi. Prezident taʼlim tizimini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratib, bakalavriat yoʻnalishlarini xorijiy andozalarga moslashtirish, yangi taʼlim dasturlarini joriy etish va xalqaro akkreditatsiya tizimiga oʻtishni taʼminlash zarurligini taʼkidladi.²

Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oʻqitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq darsliklarni yangilash boʻyicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan ilgʻor xorijiy tajribalar asosida 1-4sinf darsliklari yangidan 4K modeli asosida tayyorlandi. Taʼlim jarayonida 4K modelidan foydalanish koʻplab sinovlardan otgan boʻlib, oʻqitishga zamonaviy yondashuvdir. Ushbu 4K modeli orqali oʻquvchilarning tanqidiy fikrlashi, oʻz fikrini erkin bayon etishiga alohida ahamiyat beriladi. Yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni tashkil etadi va taʼlim samaradorligini oshiradi”.³

Yangi darsliklar innovatsion va interfaol oʻqitish usullarini oʻz ichiga oladi, bu esa oʻquvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi va ularni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Jahon Iqtisodiy Forumi asoschisi va ijrochi raisi professor Klaus Shwab oʻzining “Toʻrtinchi sanoat inqilobi” nomli kitobida insonlarning hayot tarzi, ishlashi va oʻzaro munosabatlarini tubdan oʻzgartiruvchi inqilob boshida ekanligiga ishonch hosil qildi. Oldingi sanoat inqiloblari insoniyatni hayvonlar kuchidan ozod qilgani, ommaviy ishlab chiqarishni amalga oshirgani va milliardlab odamlarga raqamli imkoniyatlarni taqdim etgani haqida gapirib, Toʻrtinchi sanoat inqilobi jismoniy, raqamli va biologik olamlarni uygʻunlashtirgan, barcha fanlar, iqtisodiyot va sanoatlarga taʼsir koʻrsatadigan va hatto inson boʻlish nimani anglatishi haqidagi gʻoyalarni qiyinlashtiradigan bir qator yangi texnologiyalar bilan tavsiflanishini taʼkidlaydi.⁴ Tadqiqotchi N.Xaydarova “Boshlangʻich sinf ona tili darslarida ijodiy fikrlashga oʻrgatish” nomli magistrlik dissertatsiyasida boshlangʻich sinflarning ona tili darslarida ijodiy fikrlashga oʻrgatishning ilmiy va amaliy asoslari, oʻquvchilar ijodiy fikrlash jarayonining psixologik jihatlarini, “ijodiy fikrlash” tushunchasi mazmunining oʻziga xos xususiyatlari, muammoli izlanish, ijodiy ish usullari, didaktik oʻyinlar, oʻqituvchi-oʻquvchi hamkorligi oʻquvchilarni ijodiy fikrlashga oʻrgatish

²Fledu. (2025, 23-yanvar). *Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy taʼlim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.*

³ Karimov Sh. Oliy taʼlimda raqamli texnologiyalarning ahamiyati // Innovatsion taʼlim jurnali. – 2023. – № X. – S. 97–101.

⁴ World Economic Forum. (n.d.). *The Fourth Industrial Revolution*, by Klaus Schwab. Retrieved June 24, 2025, from

jarayoniga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligi yoritib berigan.⁵ Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi mazmunida Davosda ilgari surilgan malakalar 4 K modelida ifodalanib, moslashuvchan ko'nikmalar deb yuritila boshlandi. So'nggi bir necha yil ichida butun dunyoda maktab ta'limi fan bilimlari va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan an'anaviy usullardan voz kechib, XXI asrning zamonaviy asosiy kompetensiyalari yoki ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga harakat qilmoqda. Tadqiqotimizni amalga oshirish maqsadida tajriba sinflari uchun maxsus o'qish savodxonligi darsliklaridagi o'quv materiallari bo'yicha 4 k modeliga asoslangan topshiriqlar metodikasini ishlab chiqdik va amaliyotga joriy qildik. Quyida tajriba sinflarida sinovdan o'tkazilib, ijobiy natijalar bergan ayrim ishlab chiqilgan topshiriqlardan namunalar keltiramiz. 4-sinf o'qish savodxonligi darsligining 2-qismida berilgan Ezopning “Tovuq bilan tulki” masala matnini tahlil qilish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini muammoli metod asosida rivojlantirish mumkin. Ushbu masalda tovuq va tulki obrazlari bor. Asarda tulki obrazi mug'ambir, ayyor, hiylakor insonlarning timsoli sifatida gavdalangan. Tovuq obrazida esa aqlli, dono, o'ylab ish ko'radigan kishilarning xatti-harakatlari ifodalangan. Bu masalda tulki daraxtni ustida turgan tovuqni pastga tushirib yemoqchi bo'ladi. Unga hiylakorona: “Sen yirtqichlar bilan qushlar, umuman, o'rmonimizdagi barcha jonzorlar o'rtasida tuzilgan tinchlik bitimi haqida hali eshitmadingmi? Bundan keyin biz bir-birimizni ovlamaymiz, aldamaymiz va o'g'irlamaymiz balki, tinchlikda, hamjihatlikda yashaymiz”, deya murojaat qiladi. Shu gaplarni aytib, pastga tushishga undaydi. Masal bo'yicha tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchining bergan savollariga o'quvchilarning javoblari orqali tanqidiy fikrlashga yo'naltirish mumkin:

O'qituvchi: Siz tovuqning o'rnida bo'lganingizda qanday ish tutgan bo'lardingiz?

1-O'quvchi: Do'stlikni taklif etardim.

2-O'quvchi: Tulkiga ishonmaslikni afzal ko'rardim.

3-O'qituvchi: Men o'zimni ehtiyotkorlik bilan himoya qilishga, hayotimni saqlashga harakat qilardim.

4-O'qituvchi: O'quvchilarning har xil javob variantlari tinglanadi.

O'qituvchi: Shu tovuq o'rniga boshqa tovuq ham bo'lishi mumkin edimi? Axir tovuqlar ko'pku? Endi tasavvur qiling. Tulkining gaplariga bir shoshqaloq tovuq ishondi va pastga tushdi. Shunda tulki unga tashlanmoqchi bo'lganida tovuq tulkining maqsadiga tushunib qoldi va omon qolish uchun miyasiga bir fikr keldi. Xo'sh, bolajonlar, tovuq qanday fikrga keldi va tulkiga omon qolish uchun nima dedi? Agar Siz tovuqning o'rnida bo'lganingizda omon qolish uchun qanday yo'l topardingiz? Masal so'nggida esa qissadan hissa chiqarish yaxshi tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

⁵ X.V Nilufarning “boshlang'ich sinf ona tili darslarida ijodiy fikrlashga o'rgatish” mavzusida magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi 7-bet

1-O`quvchi: Tovuq omon qolish uchun aqlini ishlatib qutulib qoldi.

2-O`quvchi: Tulkini aldab qochib qoldi.

**3-O`qituvchi:** Agar tovuq o`rnida bo`lganimda, tulkiga qarshi qanday fikrga kelardim.

**4-O`qituvchi:** Agar men tovuq o`rnida bo`lganimda, omon qolish uchun birinchi navbatda, tulkiga ishonmaslik va uning so`zlariga aldanmaslikka harakat qilardim.

Xulosa qilib aytganda, O`qish savodxonligi darslarida 4K modelini qo`llash — bu o`quvchilarga o`qish va yozish ko`nikmalarini rivojlantirish, ularning tahlil qilish, tasavvur qilish, yaratish va mulohaza yuritish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradigan metodik yondashuvdir. 4K modeli (kritik fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik, va kreativlik) o`quvchilarga matnlarni chuqur tahlil qilish, o`z fikrlarini aniq ifodalash, jamoa bilan ishlash va yangilik yaratishda yordam beradi. Bu o`qish va yozish jarayonini interaktiv va samarali qiladi. Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda bizning ta`lim tizimimiz ham to`laqonli zamon talabiga javob berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar va web saytlar:

1. **Daryo. (2020, September 30).** *Shavkat Mirziyoyev o`qituvchi va murabbiylarni kasb-bayrami bilan tabrikladi.* Retrieved from
2. Fledu. (2025, 23-yanvar). *Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy ta`lim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.*
3. **Karimov Sh.** Oliy ta`limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati // Innovatsion ta`lim jurnali. – 2023. – № X. – S. 97–101.
4. World Economic Forum. (n.d.). *The Fourth Industrial Revolution, by Klaus Schwab.* Retrieved June 24, 2025, from
5. X.V Nilufarning “boshlang`ich sinf ona tili darslarida ijodiy fikrlashga o`rgatish” mavzusida magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi 7-bet